

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**ODAM ANATOMIYASI FANIDAN  
O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
Ta'lif sohasi: 510 000 – Biologik va turdosh fanlar  
Ta'lif yo'nalishi: 60510100-Biologiya

Fan/modul kodi OAN 1204	O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi  Odam anatomiyasi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)  60	Mustaqil ta'lif (soat)  60
2.		Jami yuklama (soat)  120	

## I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad –odam anatomiyasi fanining rivojlanish tarixi, anatomik atamalar, anatomik sistematika, odam organizmning anotamik tuzilishi, rivojlanishi, tizim filogenezi va tizimlarning funksiyalarini bir-biriga bog'lab o'rghanishdan iborat.

Fanning vazifasi - odam organizmining shakli va tuzilishi, uning rivojlanish jarayoni, ayni vaqtida har bir a'zoning jinsiy jihatdan va yoshga qarab tafovutlari, shuningdek, muhit sharoitlarining a'zolar tuzilishiga ta'sirini bilish.

## II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Kirish. Odam anatomiyasi faning maqsadi, vazifalari, rivojlanish tarixi. Odam tanasi hujayralari

Odam anatomiyasi fanining predmeti, o'rghanish obektlari, bo'limlari, maqsadi, vazifalari, rivojlanishi va tarixi. Odam anatomiyasi fanining boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni. Fanni rivojlanishda O'zbekiston olimlarini qo'shgan hissasi. Odam tanasini hujayralari, odamni kelib chiqishi.

#### 2-mavzu. Odam tanasidagi to'qimalar va organlar. Epiteliy, biriktiruvchi, muskul, nerv to'qimasining tuzilishi

Odam tanasidagi to'qimalar haqida tushuncha. Epiteliy to'qimasining tuzilishi va turlari, biriktiruvchi to'qimaning tuzilishi va turlari. Muskul to'qimasining tuzilishi, turlari. Nerv to'qimasining tuzilishi, turlari va vazifasi. Tana tekisliklar va o'qlari.

#### 3-mavzu. Osteologiya. Suyak to'qimasining tuzilishi

Tayanch-harakatlanish sistemasining organizmdagi vazifasi. Suyaklarning umumiy tavsiyi. Primatlar skeletiga nisbatan odam skeletining tuzilishining xususiyatlari. Osteologiya bo'limlari. Suyak to'qimasining tuzilishi, embrional va filogenetik rivojlanishi.

#### 4-mavzu: Suyak tuzilishiga ko'ra turlar, shakllari joylashishi

Suyaklarning shakllari. Suyaklarning tuzilishi, kimyoviy tarkibi. Tana skeletining qismlari. Gavda skeleti suyaklari. Bosh skeleti suyaklari. Qo'l va oyoq

skeleti suyaklari. Suyaklarning o'zaro birikishi.

#### **5-mavzu. Muskul tizimi – miologiya. Muskullarning xilma-xilligi, tuzilishi. Mushaklarning asosiy guruhlari**

Umumiy tavsifi. Muskul to'qimaning filogenezi. Organizm uchun muskullarning ahamiyati. Muskullar morfologik va fiziologik hususiyatlarga qarab bo'linishi: 1) skelet muskulaturalari, 2) silliq muskullar, 3) yurak muskulaturasi. Fassiya, pay, aponevrozlar tuzilishi. Muskul tola (simplast) haqida tushuncha. Muskullarning shakllari. Fassiyalar.

#### **6-mavzu. Qon tomirlar tizimi. Yurakning tuzilishi**

Organizmning ichki muhiti haqida tushuncha. Qonning tarkibi. Qonning shaklli elementlari. Qon guruhi va rezus-faktor haqida tushunchasi. Umumiy tavsifi. Yurak va uning tuzilishi. Asosiy yurak arteriya va vena tomirlari. Qon hosil qiluvchi organlar va qon deposi.

#### **7-mavzu. Angiologiya. Qon aylanish va limfa sistemasining ta'rifi**

Yurakning o'ziga xos fiziologik xususiyatlari. Yurak sikli. Yurakning o'tkazuvchi sistemasi. Yurak avtomatiyasi. Qon aylanishining kichik doirasini arteriya va venalari. Qon aylanishining katta doirasini arteriya va venalari. Limfa sistemasi-asosiy tomirlari. Limfa suyukligi va limfa tizimi vazifasi.

#### **8 -mavzu. Splaxnologiya. Nafas olish a'zolarlari anatomiyasi**

Splanxologiya va ichki organlar haqida tushuncha. Ichki organlarning umumiy tavsifi, ularning klassifikatsiyasi va funksiyasi. Tananing boshliqlari. Tananing bo'shlig'idagi organlari. Qorin bo'shlig'ini zonalarga bo'lisch. Parenximatoz va naysimon organlarining tuzilishi. Ichki a'zolar devoridagi seroz parda, muskul qavat, shilliq pardanening ta'rifi, ularning shakllanishi. Nafas olish tizimining umumiy tavsifi. Burun bo'shlig'i va burun-halqum tuzilishi. Hiqildoq tuzilishi. Traxeya tuzilishi. Bronxlar tuzilishi. O'pkalar tuzilishi. Plevra tuzilishi.

#### **9-mavzu. Ovqat hazm qilish a'zolari anatomiyasi**

Ovqat hazm qilish a'zolarining ahamiyati. Og'iz bo'shlig'ida joylashgan a'zolarning tuzilishi. Halqum, qizilo'ngachning tuzilishi. Qorin bo'shlig'i haqida umumiy ma'lumot. Oshqozonning tuzilishi. Ingichka ichak va yog'on ichakning qismlarining tuzilishi. Ovqat hazm qilish tizimining bezlarini tuzilishi.

#### **10-mavzu. Ayirish azolarining anatomiyasi**

Ayirish sistemasining ahamiyati. Ayirish a'zolarining umumiy tasnifi. Buyrakning tuzilishi. Nefronlarning tuzilishi. Buyrakning qon tomirlari. Siyidik nayi va siyidik qopining tuzilishi.

#### **11-mavzu. Ichki sekretsiya bezlari anatomiyasi**

Endokrin sistemasi. Gipofiz bezining tuzilishi. Epifiz bezining tuzilishi. Gipofiz va epifiz bezlarining boshqarilishi. Ayrisimon bezning tuzilishi. Buyrak usti bezining tuzilishi. Qalqonsimon bez va qalqon oldi bezlarining tuzilishi. Qalqonsimon bez va qalqon oldi bezlarining boshqarilishi.

### **12-mavzu. Aralash sekretsiya bezlari anatomiysi**

Oshqozon osti bezlarining tuzilishi. Jinsiy bezlar va ularning tuzilishi. Endokrin bezlar faoliyatining asab tizim orqali boshqarilishi.

### **13-mavzu. Nerv tizimining filogenezi va ontogenezi. Markaziy va periferik nerv sistemasi**

Nerv sistemasi haqida umumiyl ma'lumot. Nerv tizimining filogenezi, ontogenezda rivojlanishi. Markaziy asab tizimining strukturası. Nerv to'qimasining tuzilishi va vazifasi. Orqa miyaning tashqi va ichki tuzilishi. Orqa miya nervlari. Bosh miya. Bosh miyaning tuzilishi. Bosh miya ustunining tuzilishi. Miyacha. Bosh miya nervlari. Bosh miya yarim sharlari tuzilishi. Bosh miya po'stlog'i tuzilishi. Periferik nerv sistemasi. Vegetativ nerv tizimi.

### **14-mavzu. Periferik nerv sistemasi. Somatik va vegetativ nerv sistemasi haqida tushuncha**

Nervning tuzilishi. Orqa miya va bosh miya nervlarining topografiyası. ularning vazifasiga ko'ra klassifikatsiyasi. Nerv tugunlari va asab chigallari.

### **15-mavzu. Sezgi organlar (analizatorlar) tuzilishi**

Eshitish, ko'rish va sezgi a'zolari. Eshitish a'zolari tashqi, o'rta va ichki quloqlar. Ko'zning optic va mexanik qismining tuzilishi. Ta'm bilish analizatorining tuzilishi. Sezgi a'zolari teri analizatorlari terining morfologik va mikroskopik tuzilishi, nerv uchlari.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Odam anatomiysi fanining tadqiqot usullari. Anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida inson tanasining a'zolari va to'qimalarini o'rganish.
2. Odam tanasidagi to'qimalarning tuzilishini o'rganish.
3. Anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida suyaklarning tuzilishini, shakllarini o'rganish.
4. Anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida suyak tapografiyasini o'rganish.
5. Muskul tizimi – miologiya. Anatomik atlas, tarqatma va multimedia materiallar yordamida muskullarning anatomiyasini, xilma-xilligini, tuzilishini o'rganish.
6. Yurak va qon tomirlarning tuzilishini anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida o'rganish.

7. Anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida qon va limfa aylanish tizimini tuzilishini o'rganish.
8. Splaxnologiya. Nafas olish a'zolari anatomiyasini anatomik atlas, tarqatma va multimedia materiallar yordamida o'rganish.
9. Ovqat hazm a'zolari tuzilishi anatomik atlas, tarqatma va multimedia materiallar yordamida o'rganish.
10. Ayirish sistemasining tuzilishini anatomik atlas, tarqatma va multimedia materiallar yordamida o'rganish.
11. Ichki sekretsiya bezlarini tuzilishini anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida o'rganish.
12. Aralash sekretsiya bezlarini tuzilishini anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida o'rganish.
13. Markaziy va periferik nerv sistemasining organlarini tuzilishini anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida o'rganish.
14. Periferik nerv sistemasining organlarini tuzilishini anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida o'rganish.
15. Analizatorlarning tuzilishini anatomik atlas va tarqatma materiallar yordamida o'rganish.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarini bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarini tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

#### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Osteologiya. Bosh skeletining anatomik tuzilishi.
2. Suyaklarning brikishining umumiyl tavsifi.
3. Ichki sekretsiya bezlari va ularning gormonlari.
4. Teri tuzilishi va funksiyasi.
5. Organizm immun sistemasi.
6. Odam evolyusiyasi, dastlabki odamlar.
7. Skelet tizimi filogenezi va buzilishlari.
8. Hazm tizimi filogenezi va buzilishlari.
9. Nafas tizimi filogenezi va buzilishlari.
10. Ayrish tizimi filogenezi va buzilishlari.
11. Endokrin tizimi filogenezi va buziilishlari.
12. Bosh miya katta yarim sharlarining anatomik tuzilishi.

<p>3.</p>	<p><b>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- odam organizmining o'ziga xos anotamik tuzilishi, ichki azolarning (nafas olish, qon aylanish, ayirish, tayanch-harakat tizimi, nerv tizimi va boshqalar) ontogenezda rivojlanishi, organizmning topografiyasi, azolarning lotincha nomlanishi, bir biri bilan bog'liqligi to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; (<i>bilim</i>)           <ul style="list-style-type: none"> <li>- odam anatomiyasi nazariy asoslarini, tushunchalar, a'zolar va tizimlar shakllanishi xususiyatlari to'g'risida <i>ko'nikmalarga ega bo'lish</i>; (<i>ko'nikma</i>).</li> <li>- odam azosining anatomik tuzilishini o'ziga xos tuzilishi, azolarning shakllanishida yoshning ahamiyati, ontogenezda azolarning qanday shakllanishi, xar bir azoning o'ziga xos anatomic tuzilishi to'g'risida <i>malakalarga ega bo'lishi kerak</i>; (<i>malaka</i>).</li> </ul> </li> </ul>
<p>4.</p>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• guruhlarda ishslash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishslash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
<p>5.</p>	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
<p>6.</p>	<p><b>VIII. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Egamberdiyeva L.N., Allanazarova I.A., Atabayeva D.T. Odam anatomiysi va fiziologiyasi. O'quv qo'llanma./ Chirchiq. "Zebo Prints". 2024. -480 b.</li> <li>2. Ахмедов А.Ф. Одам анатомияси. Т.: "Иктисодиёт-молия".2007. -444 б.</li> <li>3. Mamatqulov D.A. "Anatomiya" Т.: "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2017. -156 b.</li> </ol> <p style="text-align: right;"><i>ЖК</i></p>
<p>7.</p>	<p><b>IX. Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>5. Билич Г.Л., Зигалова Е.Ю. Анатомия человека/ -М.: Издательство «Э», 2016. -240 С.</li> <li>6. Кодиров Э.К. Одам анатомияси. Лотин. Тошкент. "Университет". 2007, 276 бет.</li> </ol>

- 7.Ahmedov N.K. Odam anatomiyasi. I-jild Atlas “O’zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2018. 262-b.  
 8.Ahmedov N.K. Odam anatomiyasi. II-jild Atlas “O’zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2018. 255-b.

#### **X. Axborot manbalari**

<http://www.cspu.uz>

[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz) - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portalı

7.	<b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “<u>29</u>” <u>08</u> <u>1</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan</b>
8.	<b>Fan/modul uchun ma’sul:</b> <b>D.T.Atabayeva – CHDPU, “Biologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi</b>
9.	<b>Taqrizchilar:</b> <b>L.N.Egamberdiyeva</b> – Astraxan davlat texnika universiteti Toshkent viloyatidagi filiali suv bioresuerslari va texnologiyalari kafedrasi dotsenti, b.f.n. <b>Z.Sh.Sobirova</b> – ChDPU “Biologiya” kafedrasi o‘qituvchisi, b.f.f.d. (PhD)